

Dars rejalashtirishning asosiy tamoyillari

*Dilshoda Mahkamova,
mahkamova.dilshoda@gmail.com
Tayanch doktorant
Namangan davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada dars samaradorligini oshirishga yordam beradigan darsni rejalashtirishning asosiy tamoyillari muhokama qilinadi. Maqolada bir nechta soha olimlarining maqolalari va so‘nggi ilmiy tadqiqotlari ko‘rib chiqildi va asosiy natijalari kiritildi. Shuningdek, talabalarning faolligini oshirish, darsda ishtirok etish va o‘quv natijalarini baholash bo‘yicha qimmatli tavsiya va takliflar berildi.

Kalit so‘zlar: dars rejalash asosiy tamoyillari, darsni rejalashtirish, dars samaradorligi, o‘quvchilarning faolligi

Basic principles of lesson planning

*Dilshoda Mahkamova,
mahkamova.dilshoda@gmail.com
Base doctorate
Namangan State University*

Annotation. The article discusses the main principles of lesson planning which promote lesson efficiency. As a review article, some research papers and recent research articles by some scholars have been reviewed and basic findings have been included. Moreover, valuable recommendations and suggestions have been given on enhancing students’ engagement, participation and expression of learning outcomes.

Keywords: basic principles, lesson planning, lesson efficiency, learner engagement.

Основные принципы планирования урока

*Дилшода Махкамова,
mahkamova.dilshoda@gmail.com
Докторант
Наманганского государственного университета*

Аннотация. В статье рассматриваются основные принципы планирования урока, которые способствуют эффективности урока. В качестве обзорной статьи были рассмотрены некоторые исследовательские работы и недавние исследовательские статьи некоторых ученых, а также включены основные выводы. Кроме того, были даны ценные рекомендации и предложения по повышению вовлеченности, участия и выражения результатов обучения учащихся.

Ключевые слова: основные принципы, планирование урока, эффективность урока, вовлеченность учащихся.

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish masalasi keng qamrovli islohotlar joriy etishni talab qilayotgan bir vaziyatda ta’lim sifatini tubdan yaxshilash, malakali kadrlarni tayyorlash masalalarining yanada dolzarbligi ortmoqda. Jamiyatning har qaysi

sohasini boshqaruvchi yetakchi kuch bu-sifatli kadrlar guruhi ekan, ularni shakllantirish, ta'lim sifatini yaxshilash masalalari yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida jamiyatga bu kuchni tayyorlab beruvchi, dars samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil-pedagoglar hisoblanadi. Shuningdek, pedagoglarning mahorati, darsni samarali tashkil etishdagi asosiy tamoyillari hamda muammolarini o'rganish hozirgi vaziyatga yechim o'laroq muhimdir.

Yurtimizda pedagoglarning asosiy qismini yoshlar tashkil etganligini hisobga olgan holda, milliy va xorijiy tajribalarga murojaat qilgan holda eng malakali va yuqori dars samaradorligiga ega soha mutahassislaridan darsni yanada foydali tashkil etish usullari to'g'risida kichik tadqiqot o'tkazdim. Bunda asosiy e'tiborni ko'pchilik soha olimlari tomonidan taqdim etiladigan darsni loyihalashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan darsning tarkibiy qismlari emas, balki dars samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar va ravsiyalarga qaratdim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada chet tili o'qitish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazgan jahon olimlarining, jumladan Starr S, Jensen, L, Lee Ann Jung boshqalarning tadqiqot natijalaridan foydalandim. Ko'plab olimlar bu sohada o'z qarashlari va tavsiya modellarini taqdim qilgani holda, Sackstein o'z maqolasida dars samaradorligini belgilovchi asosiy omil bu-pedagogning o'y-fikrlari, o'quvchilari to'g'risidagi xulosa va kutuvlari ekanligini aytadi. Uning tadqiqot natijalariga ko'ra, mashg'ulot jarayonlarida hamda uni rejalashtirishda pedagoglar talabalar yaxshi shakllantirgan ko'nikmalardan ko'ra o'quv materialining o'quvchilar bilmaydigan jihatlariga yoki o'quvchilarda zaifroq rivojlangan nutq ko'nikmalarini mashq qildirishga ko'proq e'tibor qaratadilar. Bu esa ko'pchilik talabalarning darsni ozlashtirishga bo'lgan ichki turtki(motivatsiya) sini pasayishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan hisoblanadi (Starr Sackstein, 2019). Psixologiyadan ma'lumki, har qanday shaxsning o'zining yaxshi o'zlashtirishini, o'rganish jarayonida o'z kichik yutuqlarini ko'rishi, uning uchun asosiy ichki turtki manbai hisoblanadi.

Muallim darsni rejalash jarayonida ham o'quvchilar bilimi va salohiyatiga ijobiy yondashuv asosida yondoshsa, bu o'quvchilar uchun til materialini yaxshi o'zlashtirishlaridan tashqari til o'rganishga bo'lgan ichki turtkisini ham kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarga o'z til ko'nikmalarining rivojlanganligini, ular harakatlari natija berayotganini vaqti-vaqti bilan ko'rsatib turish ularning o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yanada kuchaytiradi hamda yangi bilimlar olishlariga qanot bag'ishlaydi.

Masalan, bunga pedagog chet tili darslarida odatdagi qiyinroq til materiallari bilan bir qatorda vaqti-vaqti bilan o'quvchilar osonlik bilan bajaradigan eshitish ko'nikmasi uchun kichik multfilmlar yoki o'qish materiallarini taqdim qilish orqali erishish mumkin.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqotlar natijasida ko'plab malakali va tajribali pedagoglardan olingan so'rovnomaga ko'ra, darsni samarali tashkil etishning bir necha asosiy tamoyillari ta'kidlab o'tiladi. Jumladan, Jensenning fikriga ko'ra, asosiy tamoyillar uchta bo'lib, ular *izchillik, xilma-xillik* hamda *moslashuvchanlikdir*.

1. Izchillik. Yaxshi tashkil etilgan dars jarayoni izchillikka hamda uzviy bog'liqlikka ega bo'ladi. Ya'ni, dars bu- alohida –alohida ajratilgan mashqlar majmuasi emas, balki, bir-biri bilan uzviy bog'liqlikka ega bo'lgan jarayondir.

Yillik yoki oylik o'quv rejasi kesimida olinganda, darslar bir-biriga uzviy bog'langan, bitta ipga tizilgan turli mavzudagi o'quv mashg'ulotlari to'plamidir. Kunlik tashkil etiladigan darslar kesimida esa o'quvchilar har bir bajarilayotgan topshiriqning mantiqiy asosini bilmog'i lozim, shu bilan birga ular bir-biriga o'zaro bog'langan bo'lganda ularni o'zlashtirish ancha osonlashadi.

2. Xilma-xillik. Yaxshi tashkillangan dars o'zida xilma-xillikni namoyon etadi. Bu xilma-xillik yillik o'quv rejasi kesimida ham, bitta dars jarayoni ham aks etmog'i lozim. Ba'zi o'quvchilar uchun dars jarayonini, undagi topshiriqlar, tashkillash jarayonlarini oldindan taxmin qilish ancha qulaylik tug'dirsa-da, sinfda zerikarli muhitning oldini olish maqsadida darslarni doimo bir xil andozada

tayyorlamaslik darkor. Yillik o'quv rejasi kesimida yil bo'yida darslar mavzular, qo'llaniladigan nutq mashg'ulotlari, o'qitiladigan til materiallari va til ko'nikmalari xilma-xillik kasb etishi lozim.

Kundalik darslar esa darslarning olib borilish tezligi, topshiriqlarga ajratilgan vaqtlar ko'lami hamda til materiallarining qiyinlik darajasiga ko'ra turlicha tashkillangan bo'lishi lozim. Shuningdek, muallim va o'quvchi nutq vaqtlarida ham xilma-xillik ta'minlangan holatda ma'lum darslarda o'quvchilardan o'ta faollik talab etilsa, ba'zi dars jarayonlarida esa ular yangi til materialini o'zlashtirish chog'ida o'qish yoki eshitish til ko'nikmasini mashq qilib qabul qiluvchi rolda bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonni ba'zi mutaxassisleri 'harakatlan'(ing.'stir') yoki 'o'tir'(ing.'settle') deb nomlashadi.

Darslardagi vazifalar singari har bir dars sinfni tashkillash jihatidan ham turlicha yondashuvga ega bo'lishi lozim. Masalan, ma'lum dars va nutq mashg'ulotlari butun sinf ishtiroki bilan olib borilsa, keyingilarida kichik guruhlarda, juftlikda yoki yakka holda ishlash o'rinlari bo'lishi lozim. Shuningdek, muallimning mayli, o'quv muassasasidagi turli tadbir yoki hodisalarga qarab ham darsning kayfiyati turlicha bo'lishi mumkin.

3. Yaxshi tashkillangan dars moslashuvchan xarakterga ega bo'lmog'i lozim. Dars rejasi-pedagogni avvaldan yozib qo'yilgan rejaga qattiq bog'lab turadigan vosita emas. Malakali pedagoglar har doim o'z darslarini reja qiladilar, ammo vaziyatga qarab qachon o'zgartirish kerakligini ham tez payqaydilar. Chunki bitta o'quvchining qiziqarli savoli darsning yo'nalishini o'zgartirib yuborishi va natijada barcha o'quvchilar bu vaziyatdan ko'proq foyda olishlari mumkin. Ba'zan esa muallim doskaga yozayotgan jarayonda qandaydir yaxshi g'oya keladi va buni sinash darsda qandaydir xato-kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan holatga tavakkal qilishga ham arziydi. Aslida xoh malakali, xoh yosh pedagog bo'lsin, darsdagi yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklardan yanada ko'proq saboq oladilar (Jensen, 2001).

Shuningdek, Lee A.J o'z maqolasida darsni barcha o'quvchilar uchun samarali tashkil etish uchun har qanday pedagog quyidagi uchta prinsipni yodida tutmog'i lozimligini aytadi:

1. O'quvchilarning diqqatini darsga jalb qilish hamda ushlab qolishning bir emas, bir necha usullaridan foydalaning;

2. Yangi til materiali o'quvchilarning barchasiga tushunarli bo'lishi uchun mavzuni turli usullar va yo'llar yordamida taqdim eting;

3. Talabalarga o'z bilimlarini ko'rsatishga yordam bering, hamda bunda bir emas, bir nechta harakat va ifoda vositalaridan foydalaning (Lee Ann Jung 2021).

Muhokama. Turli manbalarda soha mutaxassisleri tomonidan turli tavsiya va fikrlar berilgani holsa, Sackstein darsni samarali tashkil etishning asosiy tamoyillarni quyidagicha izohlaydi:

1. Pedagog talabalarga qanday va nimani o'rganishlarini tanlash imkonini beradigan o'rganish tajribasini berishi lozim. Yoshi qanday bo'lishidan qat'i nazar, ularga jarayonning bir qismi bo'lishga imkon bering

2. O'quv jarayoni davomida o'tilayotgan darslar haqida talabalarning fikr-mulohazalarini oling va uni tinglang. So'rashning o'zi yetarli emas, biz ularni tinglashimiz va keyin javoban nimadir qilishimiz yoki o'zgartirishlar kiritishimiz kerak.

3. Darslarni rejalash jarayonida o'quvchilaringizning qobiliyat va bilim darajalarini hisobga oling, shunda ular siz yuklagan vazifalarni muvaffaqiyat bilan uddalay oladilar. Ularda til materialini o'zlashtirish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni taxmin qilishga harakat qiling va ularga bu jarayonlarda yordam bering.

4. Yangi til o'rganish o'ziga xos mashaqqatli jarayon ekanligini hisobga olgan holda ularga o'z muammolariga o'zlari yechim topishlariga ko'mak bering. Doimo savollariga siz javob berishingiz ularga yordam bermaydi, aksincha, o'zlari izlanishlariga imkon bering.

5. Til o'rganish jarayoni bisqichma-bosqich sodir bo'luvchi jarayon bo'lib, har bir bosqichdagi kichik muvaffaqiyatlarni ham qayerda va qachon sodir bo'lishidan qat'iy nazar nishonlang.

6. Talabalarga o'zlarining o'sishini ko'rishga imkon beradigan tuzilmalarni joylashtiring. Muntazam ravishda aks ettirish, portfolio yig'ish yoki tengdoshlarni ko'rib chiqish, talabalar o'zlarining o'sib borayotgan samaradorligini tan olishlari kerak.

7. O'rganish oson jarayon emas, shu sabab, pedagog sifatida o'quvchilar uchun har qanday berayotgan xulosa va mulohazalaringiz ijobiy bo'lsin. Bu talabalarga o'z kamchiliklari o'rniga imkoniyatlarini ko'rishga yordam beradi. Ularning zaif tomonlari ularning o'sishi uchun ko'proq imkoniyatlar beradi. Agar biz ushbu vaziyatlarda qiyinchiliklarga qarashimizni o'zgartirsak, xatolarga kamchilik emas, yana bir imkoniyat deb qarash, unda o'quvchilar o'sishda davom etishadi. Buning uchun biz ularga o'z ishonchini mustahkamlashga yordam berishimiz kerak.

8. Har doim talabalar muvaffaqiyat mezonlari nima ekanligini bilishlariga yordam bering, shunda ular nimaga intilayotganini bilishadi. Imkon bo'lsa, ularni muvaffaqiyat mezonlarini o'zlari ishlab chiqishlariga jalb qiling. Bu muntazam ravishda o'rganish belgilagan maqsadlariga mos bo'lishi lozim. Muvaffaqiyat hech qachon ajablanarli holat bo'lmasligi darkor (Starr Sackstein, 2019).

Xulosa. Chet tili darslarini yanada samarali tashkil etish tamoyillari to'g'risida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga tayanib shunday xulosa qilish mumkin-ki, bunda asosiy talab pedagoglarga qo'yiladi. Soha mutaxassislari tomonidan yangi ishlab chiqilgan tamoyillarga ko'ra o'quvchilarni darsga jalb etishda, ularning darsga faol ishtirokiga erishishda endi bir emas, bitta dars mobaynida bir necha xil metod va uslublardan foydalanish lozim. Chunki har bir o'quvchi alohida fazilat va qobiliyatga ega shaxs hisoblanadi. Dars jarayonlarini eng ichki turtkisi past o'quvchini hayolimizga keltirga holda darsni rejalasak, uni darsga jalb qilish yo'llarini ishlab chiqsakina, shunda butun sinfdagi o'quvchilarning darsdagi faolligiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jensen, L. (2001). Planning lessons. In M. Celce-Murcia (Ed.), *Teaching English as a second or foreign language* (pp. 403-413). Boston, MA: Heinle & Heinle Publishers.
2. Jung, L. A. (2021). Lesson planning with universal design for learning. *Educational Leadership, Summer 2021*. ASCD. Retrieved from <https://www.ascd.org>
3. Sackstein, S. (2019, March 15). Let's focus on what learners CAN do, and plan from there. *EdWeek*. Retrieved from <https://www.edweek.org>